

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, IV-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH	10
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	16
Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI.....	20
Ma'rupova Gulnoz	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ХРАНЕНИЯ ПЛОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	24
Муратов Абдулазиз Уктамович	
DIGITAL TRANSFORMATION AND EMERGING TRENDS IN INFORMATION TECHNOLOGY.....	29
Daminova Barno, Esmurodova Zarnigor, Boltayev Javohir, Kuziboyeva Lobar	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	34
Ma'rupova Gulnoz Umarjonovna	
MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA	38
Raximov Alisher Ibragimovich	



MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA

Raximov Alisher Ibragimovich

Urganch RANCH texnologiya universiteti

"Iqtisodiyot" kafedrasida katta o'qituvchisi

[ORCID: 0009-0007-2188-6831](https://orcid.org/0009-0007-2188-6831)

Email: rahimovalisher@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyati misolida mintaqaviy iqtisodiy o'sishda xizmatlar sohasi tarkibiy o'zgarishlarining ta'siri statistik metodlar yordamida tadqiq etilgan. So'nggi yillarda xizmatlar sektorining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi izchil ortib borayotgani, raqamli transformatsiya sur'atlarining tezlashuvi hamda mazkur yo'nalishdagi davlat siyosati chora-tadbirlari tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotning maqsadi – Xorazm viloyati xizmatlar sektorida kechayotgan tarkibiy o'zgarishlarni miqdoriy baholash va ularning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga ta'sir mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Tahlil natijalari shuni tasdiqladiki, o'n yillik davrda xizmatlar sohasining YAHMdagi ulushi barqaror o'sib, 2015-yildagi 35,4 foizdan 42,6 foizgacha oshdi va hudud iqtisodiyotining asosiy negizi hisoblangan qishloq xo'jaligi tarmog'idan o'zib ketdi.

Viloyatda xizmatlar ulushining o'sishi va ichki tarmoq diversifikatsiyasi yalpi hududiy mahsulot dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, hududiy nomutanosibliklar saqlanib qolayotgani aniqlandi. Tadqiqot yakunida xizmatlarni rivojlantirish, raqamli infratuzilmani yaxshilash va hududlararo tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: statistika, xizmatlar sohasi, Xorazm viloyati, xizmat ko'rsatish, moliyaviy xizmatlar, tarkibiy o'zgarishlar.

Аннотация: В данной статье с помощью статистических методов исследуется влияние структурных изменений в сфере услуг на региональный экономический рост на примере Хорезмской области. Последовательное увеличение доли сектора услуг в валовом региональном продукте в последние годы, ускорение темпов цифровой трансформации, а также меры государственной политики в этом направлении определяют актуальность исследования. Цель исследования – количественная оценка происходящих структурных сдвигов в секторе услуг Хорезмской области и выявление механизмов их влияния на показатели экономического роста. Результаты анализа подтвердили, что за десятилетний период доля сферы услуг в ВРП стабильно росла, увеличившись с 35,4% в 2015 году до более чем 42,6%, и опередила сельскохозяйственную отрасль, считающуюся основной базой экономики региона.

Выявлено, что рост доли услуг и внутриотраслевая диверсификация в регионе оказывают положительное влияние на динамику валового регионального продукта, однако при этом сохраняются территориальные диспропорции. В завершении исследования разработаны практические рекомендации, направленные на развитие услуг, улучшение цифровой инфраструктуры и сокращение межрегиональных различий.

Ключевые слова: Статистика, Сфера услуг, Хорезмская область, Оказание услуг, Финансовые услуги, Структурные изменения

Abstract: This article investigates the impact of structural changes in the services sector on regional economic growth using statistical methods, a case study of the Khorezm region. The consistent increase in the share of the services sector in the gross regional product in recent years, the acceleration of digital transformation, and state policy measures in this direction determine the relevance of the study. The aim of the research is to quantitatively assess the ongoing structural changes in the services sector of the Khorezm region and identify the mechanisms of their impact on economic growth indicators. The results of the analysis confirmed that over a ten-year period, the share of the services sector in the GRP steadily grew, increasing from 35.4% in 2015 to over 42.6%, and surpassed the agricultural sector, which is considered the main basis of the region's economy.

It was found that the growth in the share of services and intra-sectoral diversification in the region have a positive impact on the dynamics of the gross regional product, while territorial imbalances remain. At the end of the study, practical recommendations aimed at developing services, improving digital infrastructure, and reducing interregional disparities were developed.

Key words: Statistics, Services sector, Khorezm region, Service provision, Financial services, Structural changes.



KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasi nafaqat yalpi ichki mahsulot (YaIM) shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutmoqda, balki aholi bandligini ta'minlash, innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish va turmush sifatini oshirishning asosiy drayveriga aylanmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sektorining YaIMdagi ulushi 70–80 foiz darajasiga yetgan bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O'zbekiston iqtisodiyotida ham so'nggi yillarda ushbu sektorning salmog'i izchil ortib bormoqda. 2021-yilda O'zbekiston YaIMida xizmatlar sohasining nominal qiymatlardagi ulushi 38,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil yakunida esa bu ko'rsatkich 48,6 foizga yetdi. Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, 1991-yildan 2022-yilgacha xizmatlar sohasidagi bandlik darajasi 37 foizdan 50 foizgacha ko'tarilib, qishloq xo'jaligidagi ko'rsatkich pasayishini deyarli to'liq qoplaganligi ko'rsatilgan [4]. Bu raqamlar xizmatlar sektorining nafaqat iqtisodiy o'sish manbai, balki tarkibiy transformatsiyaning asosiy mexanizmi ekanligini tasdiqlaydi.

Xizmatlar sohasining iqtisodiy o'sishdagi roli ko'p jihatdan uning tarkibiy o'zgarishlari bilan belgilanadi. An'anaviy xizmat turlaridan (savdo, transport, umumiy ovqatlanish) bilimga asoslangan yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlarga (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, professional konsalting, muhandislik, arxitektura) o'tish jarayoni iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Jahon bankining 2024-yildagi "At Your Service? The Promise of Services-led Growth in Uzbekistan" hisobotida ta'kidlanishicha, O'zbekistonda bilimga asoslangan global innovator xizmatlar – AKT, professional xizmatlar va moliya sohasi – ishlab chiqarish sanoatiga nisbatan ikki baravar yuqori mahsuldorlikka ega bo'lishiga qaramay, jami xizmatlarda bandlarning atigi 4 foizini tashkil etgan [4].

Mintaqaviy rivojlanish nuqtai nazaridan xizmatlar sohasining ahamiyati alohida o'rin tutadi. Xizmatlar sektori hududiy ixtisoslashuvni shakllantirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va aholi bandligini ta'minlash orqali mintaqaviy iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shadi. Ayniqsa, sanoat salohiyati cheklangan hududlar uchun xizmatlar sohasi ko'pincha iqtisodiy diversifikatsiya va barqaror rivojlanishning yagona alternativ tarmog'i bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston hududlari ko'rsatkichlariga qaraydigan bo'lsak, 2025-yilda xizmatlar sohasining yalpi hududiy mahsulot (YAHM) tarkibidagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri (63,1%) hissasiga to'g'ri keladi. Xorazm viloyatidagi (48,6%) ko'rsatkich bilan taqqoslaydigan bo'lsak, ancha tafovut borligini ko'rishimiz mumkin [11,12].

O'zbekistonda xizmatlar sohasi mamlakat mustaqillikka erishgandan so'ng, ayniqsa keyingi yillarda, jadal transformatsiyaga yuz tutdi. So'nggi yillarda bir qator qonun va Prezident qarorlari qabul qilinib, xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlovchi mustahkam me'yoriy-huquqiy baza shakllantirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5113-sonli¹ qarori sektorni institutsional jihatdan mustahkamlashga xizmat qildi [1]. 2021–2023-yillarga mo'ljallangan rivojlantirish dasturi natijasida o'sha yilning o'zidayoq xizmatlar hajmi qariyb 20 foizga o'sdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-son² qarori bilan esa bozor xizmatlari hajmini 1,5 baravar oshirish hamda 1,5 million yangi ish o'rni yaratish vazifasi belgilandi [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-son³ qarori bilan xizmatlar hajmini yana 15 foizga oshirish, 3 million kishini daromadli mehnat bilan ta'minlash va 52,2 mingta yangi xizmat ko'rsatish shoxobchasini ishga tushirish maqsad qilingan [3].

Tarkibiy o'zgarishlarning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri xizmatlar sektorining ichki transformatsiyasi bilan uzviy bog'liq. Bu ta'sir asosan uch yo'nalishda namoyon bo'ladi: kam mahsuldor an'anaviy xizmatlardan yuqori mahsuldor bilimga asoslangan xizmatlarga o'tish; raqamli texnologiyalar hisobiga xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish va xarajatlarni kamaytirish; xizmatlar sektorining iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan oldinga va orqaga bog'liqlik aloqalarini mustahkamlash. Shu bilan birga, O'zbekistonda xizmatlar sektorida tarkibiy siljishlar sekin kechmoqda: 2010-yildan 2022-yilgacha xizmatlarning YaIMdagi ulushi 41 foizdan 44 foizgacha oshgan, bandlikdagi ulushi esa 50 foiz atrofida barqarorlashgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, olingan natijalar Xorazm viloyati va boshqa hududlarda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari va strategiyalarini ishlab chiqishda, hududiy investitsiya siyosatini shakllantirishda, shuningdek, xizmatlar sektorida bandlikni oshirish va aholi daromadlarini ko'paytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar tayyorlashda qo'llanilishi mumkin.

1 <https://lex.uz/docs/-5421233>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-5840284>

3 <https://lex.uz/docs/-7408455>

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sohasining iqtisodiy o'sishdagi roli va tarkibiy o'zgarishlar muammosi mahalliy va xorijiy iqtisodchilar tomonidan keng tadqiq qilingan.

Xizmatlar sektoridagi tarkibiy o'zgarishlarning nazariy asoslari bir necha fundamental iqtisodiy konsepsiyalarga tayanadi. Uilyam Baumolning "nomutanosib o'sish modeli" xizmatlar sektorida mahsuldorlik o'sishi sanoatga nisbatan sekinroq kechishi sababli iqtisodiyotda resurslarning xizmatlarga siljishi uzoq muddatda iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytirishi mumkinligini ko'rsatib bergan. Baumol modelining empirik tekshiruvi shuni ko'rsatdiki, xizmatlar sektori klassifikatsiyasiga ayrim modifikatsiyalar kiritilganda modelning mantiqiy asoslari empirik jihatdan maqbul hisoblanadi. Bu esa xizmatlar sektorining ichki tarkibiy tuzilishi uning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi [5].

L.A. Strijkova va M.V. Selivanovalarning tadqiqotida Jahon bankining 1995–2022-yillardagi statistik ma'lumotlariga tayanilgan holda, uch sektorli iqtisodiyot konsepsiyasi asosida xizmatlar sohasining rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. O'rganishlar davomida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad darajasiga ko'ra to'rt guruhga ajratilgan mamlakatlar (jumladan, AQSh, Germaniya, Rossiya, Xitoy va Hindiston) misolida bandlik tarkibining xizmatlar sektoriga siljish sur'atlari empirik jihatdan baholangan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, global miqyosda xizmatlar sohasida band bo'lganlar ulushi muttasil o'sib borayotganiga qaramay, jahon yalpi ichki mahsulotida ushbu sektorning ulushi nisbatan barqaror saqlanib qolmoqda. Shuningdek, xizmatlar va moddiy ishlab chiqarish sektorlari o'rtasidagi mehnat unumdorligi nisbatining o'zgarish qonuniyatlari ochib berilib, moddiy tarmoqda mehnat unumdorligi xizmatlar sohasiga nisbatan tezroq o'sishi ilmiy jihatdan asoslangan [6].

Xizmatlar sektori ko'lami va hududiy iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham amaliy ma'lumotlar asosida keng o'rganilgan. Xususan, M. Percoco o'z tadqiqotida Yevropa birdamlik siyosati doirasida ajratilgan investitsiyalarning hududiy YaIM o'sishiga ta'sirini uzilishli regressiya modeli yordamida baholagan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy resurslarni xizmatlar sohasiga yo'naltirish ushbu sektor endi shakllanib, nisbatan kichik bo'lgan hamda mehnat unumdorligini oshirish salohiyati yuqori bo'lgan dastlabki bosqichlardagina eng katta makroiqtisodiy samarani beradi. Aksincha, agar mahalliy iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasi shundoq ham katta ulushni egallagan bo'lsa, bu sektorga kiritilgan qo'shimcha investitsiyalar iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashishiga olib kelishi kuzatilgan. Bu xulosa Xorazm viloyati kabi xizmatlar ulushi hali nisbatan past bo'lgan hududlar uchun alohida ahamiyatga ega [7].

Mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sektorining makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati va sohadagi foydalanilmagan imkoniyatlar bo'yicha qator salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, iqtisodiyot fanlari doktorlari B.A. Begalov va I.E. Jukovskayalar o'z izlanishlarida ushbu masalani kompleks o'rganishgan. Olimlar sohaga oid ilmiy adabiyotlar, maxsus uslubiy yondashuvlar hamda chuqur statistik ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish orqali O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasining joriy holatini baholashgan. Shuningdek, ularning tadqiqotlarida xizmatlar sektoriga ilg'or axborot texnologiyalari va raqamli yechimlarni joriy etish orqali tarmoqni modernizatsiya qilish hamda mavjud muammolarni bartaraf etish istiqbollari ilmiy jihatdan asoslab berilgan [8].

Shuningdek, G. Ernazarov xizmatlar tarmog'ining iqtisodiyotga multiplikativ ta'sirini, uning barqaror o'sish tendensiyalarini hamda davlat tomonidan soha hajmini oshirish va aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan strategik vazifalarni tahlil qilgan. N.B. Maxmudova esa mintaqalar misolida xizmatlar sektorini raqamlashtirish va innovatsion modernizatsiya qilish orqali hududiy tadbirkorlik samaradorligini va raqobatbardoshlikni oshirish mumkinligini ko'rsatib bergan [9,10].

Mavjud ilmiy adabiyotlar va manbalarni har tomonlama o'rganish shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda xizmatlar sohasining rivojlanish qonuniyatlari asosan makrodarajada va umumiy tendensiyalar doirasida yoritilgan. Ammo sohadagi tarkibiy o'zgarishlarni miqdoriy baholashda zamonaviy usullarni (strukturaviy siljish indeksleri, ekonometrik modellar va trend tahlili) kompleks qo'llash, shuningdek, raqamlashtirishning hududiy ta'sirini empirik o'rganish borasida qator ilmiy bo'shliqlar saqlanib qolmoqda.

Ayniqsa, mintaqalar iqtisodiyotidagi jadal o'zgarishlar fonida Xorazm viloyati xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlarini chuqur statistik tadqiq etish obyektiv zaruratga aylanib ulgurgan. Shu sababli mazkur tadqiqot yuqorida qayd etilgan ilmiy bo'shliqlarni to'ldirishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Izlanishning eng muhim o'ziga xosligi — aynan Xorazm viloyati misolida xizmatlar sohasi tarkibiy o'zgarishlarini tizimli hamda kompleks statistik tahlil qilish va bu orqali hududning iqtisodiy salohiyatini oshirish bo'yicha ilmiy jihatdan asoslangan, aniq raqamlarga tayangan xulosalar ishlab chiqishdan iboratdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda xizmatlar sohasidagi tarkibiy o'zgarishlarni baholashga qaratilgan xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari chuqur o'rganildi hamda mavjud nazariy yondashuvlar umumlashtirildi. Tadqiqotning axborot va empirik bazasini rasmiy statistik ma'lumotlar, xususan, Xorazm viloyatida xizmatlar



sektori rivojlanishining 2015–2025-yillarni qamrab oluvchi ko'rsatkichlari hamda statistik kuzatuv natijalari tashkil etadi.

Amaliy tahlillar jarayonida hudud iqtisodiyotida xizmatlar sektorining rivojlanish tendensiyalarini yoritish uchun umumilmiy va maxsus iqtisodiy-statistik usullardan keng foydalanildi. Xususan, jarayonlarni sifat jihatidan o'rganishda taqqoslama tahlil, sintez va mantiqiy fikrlash yondashuvlari qo'llanilgan bo'lsa, miqdoriy o'zgarishlarni asoslashda dinamik qatorlar tahlili, strukturaviy siljish tahlili hamda indeks usuli jalb etildi. Bu usullar xizmatlar ko'rsatish hajmining uzoq muddatli o'sish sur'atlarini, tarmoqning ichki tuzilishidagi o'zgarishlar intensivligini va sohadagi iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasini kompleks baholash imkonini berdi.

Olingan barcha empirik natijalar, hisob-kitoblar va solishtirma tahlillar ko'rgazmalilik hamda aniqlikni ta'minlash maqsadida maxsus statistik jadvallar shaklida tizimlashtirilib, tegishli ilmiy xulosalar bilan asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi hamda uning raqobatbardoshligini ta'minlashda xizmatlar ko'rsatish sohasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xorazm viloyati iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlarni miqdoriy va sifat jihatidan baholash maqsadida rasmiy statistik kuzatuvlar ko'rsatkichlari asosida kompleks tahlil amalga oshirildi.

Mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda hududiy jozibadorlikni oshirishda xizmatlar sohasining o'rni beqiyosdir. Xorazm viloyati misolida amalga oshirilgan ushbu tadqiqotning amaliy tahlili hududda xizmatlar nafaqat jadal rivojlanib borayotganligini, balki uning ichki qatlamlarida jiddiy tarkibiy dinamik o'zgarishlar va proporsional siljishlar yuz berayotganligini namoyon etdi. Tadqiqot ma'lumotlar bazasi asosida xizmatlar sohasidagi tarkibiy siljishlar va diversifikatsiya darajasi o'rganildi. Ushbu o'zgarishlarning hududiy iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashda mantiqiy-tarkibiy hamda qiyosiy-dinamik yondashuvlar qo'llanildi. Asosiy e'tibor sohaning shunchaki hajmiy o'sishiga emas, balki tarmoqlararo mutanosiblikning o'zgarishi hamda sifat jihatidan yangi bosqichga o'tish tendensiyalariga qaratildi.

Hududning umumiy iqtisodiy holatini belgilovchi makroiqtisodiy indikatorlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida iqtisodiy o'sish modellarining bosqichma-bosqich transformatsiyasi, ya'ni agrar-sanoat modelidan sanoat-xizmat ko'rsatish modeliga o'tish jarayoni kuzatilmoqda. Xususan, YAHM tarkibida 2015-yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 47,5 foizdan 2025-yilga kelib 32,6 foizgacha kamaygan bo'lsa, mos ravishda xizmatlarning ulushi 35,4 foizdan 42,6 foizgacha oshgan.

Xizmatlar sohasidagi tarkibiy siljishlarni baholash va ularning hududiy iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish, avvalo, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hajmining o'sish parametrlarini tahlil qilishni taqozo etadi. Statistik ma'lumotlarning empirik tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda Xorazm viloyatida bozor xizmatlari hajmining jadal va barqaror kengayish tendensiyasi shakllangan. Xususan, 2015-yilda viloyat bo'yicha jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2 548,6 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2020-yilga kelib 9 238,3 mlrd so'mga yetgan. 2025-yil yakunlariga ko'ra esa 36 911,6 mlrd so'mni tashkil etgan.

1-jadval. Xorazm viloyatida xizmatlar sohasi tarmoqlarining iqtisodiy dinamikasi va tuzilmaviy o'zgarishlari⁴ (2015–2025-yillar)

Xizmat turlari	2015 y.			2025- y		
	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, foizda	Ulushi, foizda	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, foizda	Ulushi, foizda
Xizmatlar – jami	2548,6	115,4	100,0	36911,6	115,2	100,0
axborot va aloqa sohasidagi xizmatlari	193,6	124,0	7,6	1534,4	123,9	4,2
moliya xizmatlari	240,5	122,4	9,4	5063,6	122,9	13,7
transport xizmatlari	913,5	113,9	35,8	6319,9	119,8	17,1
shu jumladan: avtotransport xizmati	881,1	114,2	34,6	5109,0	111,1	13,8

4 Manba: muallif ishlanmasi.

yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	20,5	123,0	0,8	12632,9	110,3	34,2
savdo xizmatlari	660,8	111,0	25,9	5175,2	112,1	14,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	88,3	112,9	3,5	559,1	110,6	1,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	72,2	109,6	2,8	1258,0	126,8	3,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	33,1	113,9	1,3	678,7	120,0	1,8
ijara va lizing bo'yicha xizmatlar	57,8	119,6	2,3	319,6	114,5	0,9
kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	88,3	118,4	3,5	995,1	111,0	2,7
shaxsiy xizmatlar	98,9	113,5	3,9	829,0	108,5	2,2
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	19,0	127,1	0,7	273,7	118,7	0,7
boshqa xizmatlar	62,1	111,6	2,4	1272,2	114,1	3,4

Xorazm viloyati xizmatlar bozorida transport sektorining mutlaq hajmi 2015-yildagi 913,5 mlrd so'mdan 2025-yilga kelib 6 319,9 mlrd so'mgacha sezilarli o'sgan bo'lsa-da, uning jami xizmatlar tarkibidagi ulushi 35,8 foizdan 17,1 foizgacha qisqargan. Makroiqtisodiy tahlil nuqtai nazaridan, nisbiy ulushning bunday pasayishi tarmoqdagi inqirozni emas, balki hududiy iste'mol bozorining chuqur diversifikatsiyalashuvini ifodalaydi. Xususan, moliya, aloqa va raqamli texnologiyalar kabi yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarning o'zib ketuvchi sur'atlarda rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan mazkur tarkibiy transformatsiya mintaqa iqtisodiyotining monotarmoq qaramligidan xalos bo'lib, mutanosib raqobat muhitiga asoslangan barqaror rivojlanish bosqichiga o'tganligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Mintaqaviy xizmatlar bozoridagi eng fundamental tarkibiy siljishlardan biri moliyaviy xizmatlar segmentida namoyon bo'ldi. Tahlil davrida mazkur tarmoqning nominal hajmi 2015-yildagi 240,5 mlrd so'mdan 2025-yilga kelib 5 063,6 mlrd so'mgacha oshib, qariyb 21 barobarlik jadal nominal o'sish dinamikasini qayd etdi. Buning natijasida moliyaviy sektorning jami xizmatlar tarkibidagi solishtirma vazni ham mutanosib ravishda 9,4 foizdan 13,7 foizgacha kengaygan. Makroiqtisodiy nuqtai nazardan, ushbu ijobiy tendensiya hududda moliyaviy vositachilik institutlarining keskin faollashuvi, iqtisodiyotning real sektori tomonidan innovatsion va investitsion kredit resurslariga bo'lgan agregat talabning ortishi hamda hududiy bank-moliya muassasalari kapitalizatsiya darajasining barqaror yuksalishi bilan bevosita izohlanadi.

Hududning uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi tayanch omili sifatida inson kapitaliga yo'naltirilgan xizmatlar sohasida chuqur institutsional o'zgarishlar kuzatilmoqda. Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, ta'lim xizmatlari hajmi 2015-yildagi 72,2 mlrd so'mdan 2025-yilga qadar 1 258,0 mlrd so'mgacha oshgan. Tarmoqdagi mazkur 17,4 barobarlik jadal o'sish dinamikasi, avvalo, hududiy ta'lim bozorida xususiy sektor (nodavlat ta'lim muassasalari) ulushining keskin ortishi, muqobil o'quv markazlari tarmog'ining diversifikatsiyalashuvi hamda aholining sifatli va innovatsion ta'lim xizmatlariga bo'lgan to'lov qobiliyatining yuksalishi kabi fundamental omillarning natijasi hisoblanadi.


Tadqiq etilayotgan o'n yillik davr mobaynida hududiy xizmatlar bozoridagi eng kutilmagan va keskin transformatsiya jarayonlari bevosita yashash va ovqatlanish sohasida yuzaga chiqdi. 2015-yil holatiga ko'ra, mazkur tarmoqning jami xizmatlar tarkibidagi solishtirma ulushi bor-yo'g'i 0,8 foiz darajasida qayd etilgan. O'sha davrda uning umumiy miqdoriy hajmi atigi 20,5 mlrd so'mni tashkil etib, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar fonida deyarli sezilarsiz o'ringa ega bo'lgan. 2025-yilga kelib ushbu tarmoq hajmi 12 632,9 mlrd so'mga yetdi. Natijada jami xizmatlar segmentidagi ulush qariyb 34,2 foizga ko'tarilib, tarmoq hudud iqtisodiyotining mutlaq yetakchi va harakatlantiruvchi drayveriga aylandi.

Raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2020-yildagi global pandemiyaning karantin cheklovlari aynan mehmonxona va umumiy ovqatlanish sohasini falaj holatiga keltirgani sababli, ushbu yilda tarmoqning o'sish sur'ati keskin tushib, 74,2 foizni tashkil qilgan. Ammo shunga qaramasdan, 2021-yilda tarmoqning real o'sish ko'rsatkichi keskin oshib, 155,9 foiz darajasida qayd etilgan. Undan keyingi yillarda ham sohada yillik barqaror va yuqori o'sish dinamikasi kuzatildi.

Mintaqa iqtisodiyotida ro'y berayotgan ko'lamdor va uzluksiz tarkibiy siljishlarni shunchaki tasodifiy iqtisodiy jarayon sifatida baholab bo'lmaydi. Aksincha, mazkur tendensiya hududning mavjud tarixiy-madaniy resurslarini



real iqtisodiy aktivlarga aylantirish, zamonaviy mehmonxona xizmatlarini diversifikatsiya qilish hamda yaxlit turistik klasterlarni shakllantirishga qaratilgan maqsadli islohotlarning amaliy natijasidir. Yashash va ovqatlanish sohasining hududiy xizmatlar bozoridagi bunday ustuvor ahamiyati faqatgina to'g'ridan-to'g'ri shakllanadigan moliyaviy tushumlar hajmi bilangina o'lchanmaydi. Makroiqtisodiy nuqtai nazardan chuqurroq yondashadigan bo'lsak, mazkur tarmoq aholi bandligini ta'minlash, transport va chakana savdo kabi turdosh sohalarni ham o'ziga ergashtirish xususiyatiga ega. Qolaversa, xususiy sektor vakillari uchun tezkor va yuqori likvidli naqd pul aylanmasini yaratib berishi hisobiga, bugungi kunda ushbu tizim mintaqa moliya-iqtisodiy barqarorligining tayanch drayverlaridan biriga aylanib ulguragan (1-rasm).



1-rasm. Xorazm viloyatida jami xizmatlar tarkibida moliya xizmatlari va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi va o'zgarish dinamikasi⁵ (2015-2025-yillar)

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazm viloyati xizmatlar sektorining so'nggi o'n yillik rivojlanish tendensiyalari yuzasidan olib borilgan chuqur empirik va tarkibiy tahlillar natijasi shuni tasdiqlaydiki, mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar tarmog'ida tarkibiy o'zgarishlar yuz bergan.

Tadqiq etilgan davr mobaynida viloyat xizmatlar bozorida shunchaki miqdoriy sakrash emas, balki chuqur institutsional va sifat transformatsiyasi yuz berdi. Mintaqa iqtisodiyoti an'anaviy transport va savdo kabi bazaviy tarmoqlarga qaramlikdan qutulib, yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi, zamonaviy va diversifikatsiyalashgan modelga muvaffaqiyatli o'tdi. Xususan, moliya, ta'lim, axborot-kommunikatsiya hamda yashash va ovqatlanish sohasining o'zib ketuvchi sur'atlarda jadal rivojlanishi hududiy xizmatlar arxitekturasini tubdan o'zgartirib, tarmoqlararo iqtisodiy aloqalarni kengaytirdi.

Istiqbolda mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishini kafolatlash va erishilgan tarkibiy muvozanatni saqlab qolish uchun hududiy iqtisodiyotga raqamli ekotizimlarni yanada chuqurroq integratsiya qilish, xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga to'liq moslashtirish hamda qishloq hududlarida infratuzilmaviy xizmatlarni rivojlantirish talab etiladi. Mazkur strategik chora-tadbirlar, o'z navbatida, mintaqa yalpi hududiy mahsulotida xizmatlar sohasi ulushining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga va aholi turmush farovonligining uzluksiz ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Olib borilgan statistik va makroiqtisodiy tahlillar natijasida Xorazm viloyatining xizmatlar sektori misolida quyidagi bir qator takliflar ishlab chiqildi.

Mintaqaviy "Aqlli turizm" va tibbiy turizm klasterlarini yaratish. Yashash va ovqatlanish xizmatlarining hudud iqtisodiyotidagi ulushi 34,2 foizga yetganligini inobatga olib, sohaga kelayotgan moliyaviy oqimlarni diversifikatsiya qilish zarur. Buning uchun an'anaviy ziyorat turizmi bilan bir qatorda, chet el fuqarolari va qo'shni davlatlar aholisini jalb etuvchi "Kompleks tibbiy turizm" hamda sun'iy intellektga tayangan xizmat ko'rsatish platformalarini amaliyotga kiritish taklif etiladi.

Moliya bozorida venchur fondlari va kraudfanding institutlarini joriy etish. Moliyaviy xizmatlar hajmining

5 Manba: muallif ishlanmasi.



21 barobar o'sishi mintaqada kuchli kapital konsentratsiyasini ko'rsatadi. Ushbu mablag'larni iqtisodiyotning real sektoriga jalb qilish maqsadida viloyatda innovatsion startaplar va axborot texnologiyalari loyihalarini moliyalashtirishga ixtisoslashgan hududiy venchur fondlarini hamda nodavlat raqamli moliya platformalarini tashkil etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5113-sonli qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-5421233>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5840284>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-7408455>
4. World Bank reports "At Your Service?: The Promise of Services-led Growth in Uzbekistan", 2024 yil dekabr.
5. Baumol, W.J. (1967). Macroeconomics of Unbalanced Growth: The Anatomy of Urban Crisis. *American Economic Review*, 57(3), 415–426. DOI: 10.2307/1812111, <http://piketty.pse.ens.fr/files/Baumol1967.pdf>
6. Стрижкова Л.А., Селиванова М.В. Сфера услуг и экономическое развитие // *Российский внешнеэкономический вестник*. – 2025. – № 9. – С. 108-127. DOI: 10.64545/2072-8042-2025-9-108-127.
7. Percoco M. Impact of European Cohesion Policy on regional growth: does local economic structure matter? // 2017. – URL: <https://iris.unibocconi.it/handle/11565/3993531>
8. Бегалов Б.А., Жуковская И.Е., Развитие сферы услуг– результаты настоящего для перспектив в будущем. *Экономика предприятий, регионов и отраслей*, 76-82
9. Ernazarov G. O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari, uning statistik tahlili va uni takomillashtirish yo'llari // *Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar ilmiy elektron jurnal*. – 2025. – 4-son. – B. 246-254.
10. Maxmudova N.B. Hududiy tadbirkorlikda xizmatlar sektorining innovatsion modernizatsiyasi // «Raqamli iqtisodiyot» ilmiy-elektron jurnali. – 2025. – 13-son. – B. 2273-2284.
11. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi, www.stat.uz
12. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi, www.xorazmstat.uz

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100